G‘ANIJON TOSHMATOV IJODI VA UNING O‘ZBEK MUSIQA SAN’ATIDAGI O‘RNI

https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.019

Elmurodova Gulrux
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq artisti G‘anijon Toshmatovning hayoti, ijodi va o‘zbek musiqasiga qo‘shgan hissasi yoritiladi. Bastakorning “Guljamol” ashulasi musiqiy jihatdan tahlil etilib, uning “Dutorchi qizlar” ansamblini tashkil etishdagi faoliyati hamda shogirdlar tarbiyasidagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: G‘anijon Toshmatov, o‘zbek musiqasi, bastakorlik, sozandalik, “Guljamol” ashulasi, “Dutorchi qizlar” ansambli, maqom, milliy musiqa merosi, ustoz-shogird an’anasi

GANIJON TOSHMATOV’S WORK AND HIS ROLE IN UZBEKISTAN MUSICAL ART

Elmurodova Gulrukh
Uzbekistan State Conservatory

Abstract: This article covers the life, work and contribution of the People’s Artist of Uzbekistan Ganijon Toshmatov to Uzbek music. The composer’s song "Guljamol" is analyzed musically, and his activities in organizing the "Dutorchi Qizlar" ensemble and his role in educating students are discussed.

Keywords: Ganijon Toshmatov, Uzbek music, composition, musicianship, song “Guljamol”, “Dutorchi Qizlar” ensemble, maqom, national musical heritage, teacher-student tradition

G‘anijon Toshmatov O‘zbekiston xalq artisti, mohir sozanda, Andijon musiqa maktabining vakili, o‘zbek bastakorlik san’atining yorqin nomoyandalaridan biri hamda zabardast bastakor. Ijodida o‘zbek va uyg‘ur xalqlari musiqa merosi an’analarini uyg‘unlashtirib, o‘ziga hos asarlar yaratgan.

G‘anijon Toshmatov 1913-yil 22-iyunda Andijon viloyatining Asaka tumanida oddiy dehqon oilasida tavallud topgan.[1] Otasi dehqon bo‘lishiga qaramay, dutor cholg‘usining mohir ijrochisi bo‘lgan. U dastlab sozandalikni otasidan hamda uning do‘stlari Karimsher, Abdulla, Muhammadalilardan o‘rganadi. Keyinchalik uning

[1] Begmatov.S. Bastakorlar ijodi. – T.: “Niso poligraf”, 2017., 80-bet

(cc) BY

san’atga bo‘lgan qiziqishi Andijonning mashhur g‘ijjakchi sozandalaridan, o‘ziga xos ijro uslubiga ega bo‘lgan ustoz san’atkor Sobirjon Siddiqov dargohiga yetaklaydi.

Bo‘lajak mohir sozanda Sobirjon Siddiqov rahnamoligida sozandalik amaliyoti va musiqa merosi namunalarini qunt bilan o‘zlashtiradi. Ayniqsa, u Farg‘ona vodiysi cholg‘u yo‘llarini, ya’ni surnay ijro yo‘llarini o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladi.

1932-yilda u ustozining maslahati va tavsiyasi bilan Y.Ohunboboyev nomidagi Andijon viloyati davlat musiqali drama teatriga g‘ijjakchi sifatida ishga kiradi. Bu yerda teatr musiqiy ansamblining badiiy rahbari To‘xtasin Jalilov bilan tanishadi va undan kuy bastalashni o‘rganadi. G‘anijon Toshmatovning kompozitorlik faoliyati ham aynan Farg‘ona viloyati musiqali drama teatrida ustozi To‘xtasin Jalilovning maslahati bilan “Layli va Majnun, hamda “Farhod va Shirin” spektakllarini sahnalashtirilishida va ularga o‘z kuylarini qo‘shishdan boshlangan. Keyinchalik B.Zeydman bilan hamkorlikda “Qari qiz” musiqali dramasini yaratgan.

G‘anijon Toshmatov 1934-yili Farg‘ona viloyati musiqali drama teatriga taklif qilinadi va 1936-yildan 1939-yilgacha ushbu teatrning cholg‘u ansamblida musiqa rahbari bo‘lib ishlaydi. 1939-yili Toshkentda Muqumiy nomidagi respublika teatri tashkil etilishi munosabati bilan G‘.Toshmatov ushbu jamoaga taklif etildi va 1946-yilga qadar mazkur teatrda ishlaydi.

Bundan tashqari, bastakor 1946-1953 yillarda O‘zbekiston radiosi qoshidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari ansambliga rahbar etib tayinlanadi. 1953-1957 yillarda O‘zbek davlat filarmoniyasi va O‘zbek davlat estradasi konsert jamoalarida sozandalik qiladi. 1957-yili O‘zbekiston Radiosi qoshida o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri tashkil etilganda, konsermeysterlik lavozimiga taklif qilinadi va sozanda sifatida 1967-yilga qadar ishlaydi.

G‘anijon Toshmatov 1967-yilda O‘zbekiston radiosi qoshida Uyg‘ur musiqasi ansamblini, 1978-yili esa O‘zbek etnografik ansamblini tashkil etib ularga boshchilik qildi. Shu yillari u butun kuch va e’tiborini ansamblning ijro saviyasini ko‘tarishga qaratdi, xususan, 12-uyg‘ur maqomini tiklashda va tasmaga yozib olinishda bosh-qosh bo‘ldi.

1979-yili G‘.Toshmatov “Dutorchi qizlar” ansamblini tashkil etib, ularga boshchilik qiladi. Hali katta sahna ko‘rmagan, tajribasiz qizlar bilan ishlash katta mehnat talab qilgan. Ustoz yalla, lapar, aytishuvlarning aksariyatiga yangicha sayqal berib, ularga o‘z ohangiga mos avjlar qo‘shib, diapazonini kengaytirib o‘rgatar edi. U har bir ansambl ishtirokchisining imkoniyatlari, ovoz imkoniyatlari va ijro jozibasini yaxshi bilgan holda, qayta ishlashda shu xususiyatlarga e’tibor berib yangicha bir asar yaratardi.[2]

Ansambl nafaqat o‘zbek xalq qo‘shiqlarini, balki qardosh xalqlar qo‘shiqlarini ham maromiga yetkazib ijro etib muhlislar ko‘ng‘lidan joy oldi. Ansambl repertuariga

[2]Suyunova. Z. G'anijon Toshmatov. – T .: O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Tahrir-nashriyot bo‘ilimi” 2009. 18-bet.

(cc) BY

kiritilgan ilk asarlardan “Koptogim qoldi bog‘da”, “Sho‘x qizlar qo‘shig‘i”, “Mening chalgan dutorimda”, “Doira dum-dum”, “Guldasta”, “Onajonlar”, “Sartaroshlar” kabilarni sanash mumkin. Ular, shuningdek, mumtozlikka yaqin bo‘lgan “Kezardim”, “Istadim”, “Guljamol” kabi ashulalarni ham ijro etishgan.

G‘.Toshmatov ansamblga nafaqat dutor, balki boshqa musiqiy sozlarni ham qo‘shgan, chunki ansambl sifatida talqin etish uchun boshqa sozlarning ovoz imkoniyatlari juda muhim edi.

Ustoz yordamida ansambl qizlari mumtoz musiqa merosi namunalarini ham munosib o‘zlashtirib bordilar. Keyinchalik “Shashamaqom” sho‘balariga mansub musiqiy namunalarni - “Qashqarchai Savti Kalon, ”, “Soqinomai Savti Kalon”, “Samarqand Ushshog‘i”, “Chorgoh”, “Nasri bayot” kabilarni ijro etishga harakat qildilar.

G‘anijon Toshmatovning hayotiy va ijodiy faoliyati xalq san’atini rivojlantirishga, san’atkorlarni tarbiyalashga hamda ko‘pdan-ko‘p shogirdlar yetishtirishga bag‘ishlangan.

“Dutorchi qizlar” ansamblida faoliyat olib borib, san’atkor darajasiga yetishgan honandalar elga manzur qo‘shiqlari bilan hurmat va e’tiborga sazovor bo‘ldilar. G‘anijon Toshmatovning ana shunday munosib shogirdlaridan biri Zamira Suyunova - O‘zbekiston xalq artisti. U ustozining ishlarini davom ettirib, G‘.Toshmatov nomidagi “Dutorchi qizlar” ansambliga rahbarlik qilgan. Zamira Rahmatullayeva - O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist. U bir necha yillar davomida ansamblning musiqiy va badiiy rahbari lavozimida faoliyat olib borgan. Bobonazarova Halima - u o‘zining ansambldagi muvaffaqiyatli faoliyati, uzoq yillar bolalar musiqa va san’at maktabi o‘quvchi-yoshlarini tarbiyalab, ko‘plab laureatlarni tayyorlagani uchun Xalq ta’limi a’lochisi, madaniyat va san’at fidokori ko‘krak nishoni hamda “Mehnat shuhrati” ordeni sohibasi, Kursiya Esonova - O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist faxriy unvoniga sazovor bo‘lgan. Honandalar: Ozoda Madrahimova, Z. Mirzatillayeva, Mohira Asadova, Dilorom Muhamedova. Sozandalar: Ro‘zbi Hodjiyeva, Sora Toshmatova, U. Dosimova M. Muminova.

G‘anijon Toshmatov xalqimizga avvalo mohir sozanda sifatida tanilgan. Uning repertuarida “Ushshoq”, “Dugoh”, “Segoh”, “Nasri Segoh”, “Ufori Nasri Segoh”, “Chapandozi Bayot”, “Farg‘ona Buzrugu”, “Surnay Buzrugi”, “Navzo‘zi Ajam” kabi maqom cholg‘u yo‘llari bilan birga “Yalang Daron”, “Nisor”, “Tong otguncha”, “Ko‘ngilsan”, “Tanovar” kabi asarlar egallagan.

Bastakor sifatida u mumtoz va zamondosh shoirlarning she’rlariga asoslanib 400 dan ortiq asarlar yaratdi. Alisher Navoiy she’rlariga “Istadim”, “Kezarman”, “Ey begim”, Zahiriddin Muhammad Bobur she’rlariga esa “Guljamol”, “Qora zulfing” kabilari mumtoz asarlar qatorida turadi. Taniqli qo‘shiq va ashulalari qatoriga “Paxtazorda”, “Vatan”, “Gulshan diyorim”, “Na go‘zalsan”, “Yor kelur” kiradi.

(cc) BY

G‘.Toshmatov 200 dan ortiq kuy va qo‘shiq yaratishga muyassar bo‘lgan. Uning musiqiy merosini ko‘zdan kechirar ekanmiz, bastakor ko‘proq uch uslubda ijod qilganligiga guvoh bo‘lamiz: 1) xalq yo‘llaridagi asarlarni qayta ishlash (jumladan, «Segoh», «Yor-yor», «Omon yor»); 2) yuqori pardalardan boshlanadigan ijod namunalari; 3) original asarlar («Guljamol», «Kezarman», «Istadim» va h.k.).

G‘anijon Toshmatov ijodining eng e’tiborga loyiq qismi - bu asl ohanglarda yaratgan asarlaridir. “Guljamol” ashulasi - bastakorning maqom yo‘llariga xos asar bo‘lib, Bobur g‘azaliga bastalangan.

“Guljamol” g‘azali beshta baytdan iborat bo‘lib, kuy tuzilishi va rivojiga ko‘ra ashula shaklida yozilgan. Asar daromad, miyonxat, dunasr, avj va furovard qismlaridan iboratdir. U “Re” doriy ladida, 4/4 o‘chovida yozilgan.

Daromad (Birinchi bayt): Sakkiz taktli kirish qismidan keyin boshlanadi. “Re” tovushidan boshlanib, kvartaga (“sol” tovushiga) sakraydi va pastlama harakat bilan o‘rni to‘ldiriladi. “Sol” yarim turg‘un tovushligi bilan belgilanadi va bayt ohirida asosiy turg‘un “re” tovushiga keladi.



Miyonxat (Ikkinchi bayt): Kvarta yuqorida (“sol” tovushida) boshlanadi. Ikkinchi bandi kvarta intervaliga sakraydi va o‘rni to‘ldiriladi. Bu baytda yarim turg‘un - “lya” bo‘lib, baytning oxirida asosiy turg‘un tovushga qaytib keladi.



Dunasr: Daromadga nisbatan oktava yuqorida yangraydi, oktava intervaliga sakrab yana o‘rni to‘ldiriladi. Bu qismda yarim turg‘un tovush - “lya” va asosiy turg‘un “re”.



Avj: Sakkiz taktli cholg‘u qismidan so‘ng, ikkinchi oktava “re” dan boshlanadi. Avj qismi o‘n sakkiz takt davom etadi va asosiy turg‘un “re” va yarim turg‘un “sol” tovushlari ritmik jihatdan belgilangan.

(cc) BY



Furovard (Yakuniy qismi): Avj qismidagi sakrashlarni o‘rnini to‘ldirgan holda kelgan. Yarim turg‘un tovush sifatida "lya" keladi va asosiy turg‘un "re" da tugaydi.



Asar o‘ziga xos savol-javob ohanglari zamirida yaratilgan. Birinchi davriya murojaatni, ikkinchisi esa unga javobni ifodalaydi. Kuyda chaqiriq, murojaat va maqtov ohanglari go‘zal uyg‘unlashgan.

G‘anijon Toshmatov o‘zbek musiqa san’atining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, ijodi orqali milliy kuy va ashulalarga yangi ruh bag‘ishladi. U “Dutorchi qizlar” ansamblini tashkil etib, ko‘plab iste’dodli shogirdlarni tarbiyaladi. Bastakorning boy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab, yosh avlod uchun ibrat va ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1) Jabborov. A. H. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. - T ., “Yangi asr avlodi” 2004.

2) O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi - T ., “Davlat ilmiy nashriyoti”.

3) Begmatov. S. Basatakorlar ijodi - T ., “Niso poligraf”. 2017.

4) Suyunova. Z. G‘anijon Toshmatov -T ., O‘zbekidton Davlat Konservatoriyasi “Tahrir-nashriyot” bo‘limi. 2009.

5) Bastakorlar ijodiyoti notalar to‘plami. - T ., “Nur-star shines” 2022.

(cc) BY